

THE POETIC ARCHETYPE OF TRAGEDY AND THE AESTHETIC EVOLUTION OF THE CONCEPT OF THE TRAGIC

Abdusalomova Durdonakhon Valilullo qizi

PhD student, Andijan State University

Email: abdusalomovadurdona0@gmail.com

Tel: +998 33 396 36 61

Abstract: *This article explores the poetic archetype of tragedy and the aesthetic evolution of the concept of the tragic from antiquity to modernism. The study demonstrates how the formation of the tragic is shaped by the synthesis of philosophical, social, and literary factors, each era offering its own unique interpretation. From the notion of catharsis in ancient Greek literature to existential anguish in modernist texts, the poetic expressions of tragedy are analyzed through literary typologies. The paper also examines the transformation of the tragic hero's archetype and the historical development of aesthetic means of expression.*

Keywords: *tragedy, tragic, poetic archetype, catharsis, literary-aesthetic development, modernism, antiquity*

ПОЭТИЧЕСКИЙ АРХЕТИП ТРАГЕДИИ И ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ КОНЦЕПТА ТРАГИЧЕСКОГО

Абдусаломова Дурдонахон Валилullo кизи

Докторант Андижанского государственного университета

Эл. адрес: abdusalomovadurdona0@gmail.com

Тел.: +998 33 396 36 61

Аннотация: В статье рассматривается поэтический архетип трагедии и эстетическая эволюция концепта трагического от античности до модернизма. Исследование показывает, что формирование трагического основывается на синтезе философских, социальных и литературных факторов, и в каждом литературном периоде приобретает уникальную трактовку. От понятия катарсиса в древнегреческой литературе до экзистенциальных переживаний в модернизме прослеживается динамика поэтических форм выражения трагического. Также анализируется трансформация архетипа трагического героя и историческая изменчивость эстетических средств выражения.

Ключевые слова: трагедия, трагизм, поэтический архетип, катарсис, литературно-эстетическое развитие, модернизм, античность

TRAGEDIYANING POETIK ARXETIPI VA FOJIAVIYLIK KONSEPSIYASINING ESTETIK EVOLYUTSIYASI

Abdusalomova Durdonaxon Valilullo qizi

ADU tayanch doktoranti

Email: abdusalomovadurdona0@gmail.com

Tel: (33) 396 36 61

Annotatsiya: Ushbu maqolada tragediya janrining poetik arxetipi va fojiaviylik konsepsiyasining antik davrdan to modernizmga qadar bo'lgan estetik evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda fojiaviylikning shakllanishida falsafiy, ijtimoiy va adabiy mezonlar o'zaro uyg'unlashgan holda har bir adabiy davrda o'ziga xos talqin kasb etgani ko'rsatiladi. Antik yunon adabiyotidagi katarsis tushunchasidan tortib, modernizmga insonning mavjudlikdagi iztiroblarigacha bo'lgan tragik ifoda shakllari poetik tipologiyalar asosida izohlanadi. Shuningdek,

maqolada tragik qahramonning o'zgaruvchan arxetipi va estetik ifoda vositalarining tarixiy dinamikasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *tragediya, fojaviylik, poetik arxetip, katarsis, adabiy-estetik taraqqiyot, modernizm, antik davr*

KIRISH

Adabiy-estetik tafakkurda tragediya janri insoniyat ruhiyatining eng murakkab va teran qatlamlarini yorituvchi badiiy shakl sifatida qadimdan mavjud bo'lib kelgan. Tragediya insonning o'z mavjudligi, irodasi, axloqi va taqdiri bilan to'qnashuvda namoyon bo'ladigan ichki iztiroblar, halokatli tanlovlar va muqarrar yo'qotishlar orqali shakllanadi. Ushbu janr o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida jamiyatning falsafiy qarashlari, axloqiy me'yorlari va estetik mezonlari bilan chambarchas bog'langan holda takomillashib borgan. Antik davrda tragediya oliy kuchlar va inson o'rtasidagi ziddiyatni markazga olib chiqdi. Aristotel "Poetika" asarida tragediyani ruhiy poklanishga xizmat qiluvchi san'at sifatida talqin etib, undagi katarsis tamoyilini fojaviylikning estetik asosiga aylantirdi. O'rta asrlarda bu fojaviylik diniy-axloqiy kontekstda yo'naltirilib, sahna najot vositasi sifatida ko'rildi. Uyg'onish davri esa insonning ijtimoiy va ichki erkinlikka bo'lgan intilishi, iroda va shaxsiyat o'rtasidagi dramatik qarama-qarshiliklarga urg'u berdi. Klassitsizm esa tragediya qat'iy janr qonunlari va axloqiy me'yorlarga bo'ysundirildi, ma'rifatparvarlik esa uni insoniylik, erkin tafakkur va adolat g'oyalari bilan boyitdi. Romantizm fojaviylikni ideal va haqiqat, orzu va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatda ko'rgan bo'lsa, realizm va naturalizm da fojaviylik insonning ijtimoiy-moddiy muhit bilan murosasiz kurashi orqali tahlil qilindi. Modernizm esa tragediyani klassik dramatism doirasidan chiqarib, uni ichki begonalik, ma'nosizlik va ruhiy parokandalik orqali ifodaladi. Maqolaning ikkinchi konseptual qatlami — fojaviylik tushunchasining estetik-nazariy talqinini ochib berishga qaratilgan. Tragediya har doim muayyan zamon va estetik makonda shakllanadi, biroq uning mohiyatida o'zgarmas psixologik va ekzistensial

ziddiyatlar yotadi. Fojaviylik — bu tasodifiy holat emas, balki insoniyat tafakkurida doimiy mavjud bo'lgan va har bir davrda yangicha talqin etiluvchi falsafiy-estetik hodisadir. U antik davrda kosmik muvozanatning buzilishi sifatida, o'rta asrlarda axloqiy inqiroz shaklida, modernizmdan so'ng esa mavjudlikdagi bo'shliq va ruhiy izolyatsiya sifatida ifodalanadi. Shu bois fojaviylikning tahlili nafaqat adabiy janrlar, balki madaniyat, estetika va falsafa bilan uzviy bog'langan kompleks tahlilni talab etadi.

Mazkur maqola aynan shu ikki masalani: birinchidan, tragediya janrining adabiy-estetik taraqqiyoti, ikkinchidan, fojaviylik tushunchasining nazariy asoslari va poetik arxetipini zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda fojaviylikning shakllanishida falsafiy tafakkur, poetik ifoda va tarixiy shart-sharoitlar qanday o'zaro uyg'unlashgani, shuningdek, zamon o'zgarishi bilan fojaviylik timsollarining qanday evolyutsiyalashgani yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Tragediya janrining shakllanishi, uning estetik funksiyasi va fojaviylik tushunchasining mazmunan boyishi G'arb va Sharq adabiy tafakkurining yondashuvlari orqali shakllanib borgan. Aristotel "Poetika" asarida tragediyani quyidagicha ta'riflaydi: "Tragediya — muayyan hajmli, turli qismlari turlicha sayqallangan til yordamida, bayon vositasida emas, balki hatti-harakat orqali ko'rsatiladigan va iztirob bilan inson ruhini poklovchi muhim va tugal voqea tasviridir"¹. Sharq tafakkurida esa fojaviylik ko'proq sabr, taqdirga itoat va axloqiy poklanish g'oyalari bilan bog'liq holda shakllanadi. Aflotun esa tragediyani axloqiy muhit uchun tahdid deb hisoblab, unga ijtimoiy-pedagogik ishonchsizlik bilan qaraydi. U shunday deydi: "Трагедия не только не доставляет удовольствия, но и является бедствием и бичом для людей"². O'zbek

¹ Аристотель. Поэтика / Пер. с древнегреческого Ф. Зелинского. — М.: Искусство, 2016. — 127 с. — С. 23–24.

² Платон. Государство / Пер. с древнегреческого А. Н. Егоров. — М.: Наука, 2007. — 420 с. — С. 111.

adabiyotida fojiaiviylik qadimgi turkiy yozma manbalardan boshlab muhim estetik tamoyil sifatida vujudga kelgan. “Qutadg‘u bilig”da inson taqdiri va baxtsizlik o‘rtasidagi kurash³, “Hibat ul-haqoyiq”da orzu va iztirob dramasi badiiy ifodalanadi. O‘rta asr mumtoz lirikasida, xususan, Alisher Navoiyning g‘azallarida fojiaiviylik tasavvufiy iztirob vositasida ifoda etiladi. Shoirning: “Yodini hayotim et, ilohiy...” — degan misrasi og‘riq va fidoyilikni ilohiy estetik darajaga ko‘taradi. XIX–XX asrlarda esa Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Fitrat kabi adiblar ijodida fojiaiviylik ijtimoiy mazmunga ega bo‘lib, xalq fojiasi, tarixiy iztirob va milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. Fitratning “Yurt qayg‘usi” asarida: “Айтгил! Сени қутқармоқ учун қонми керакдир?”⁴ — degan satr orqali shoir xalqni uyg‘onishga chaqiradi va fojiani milliy onglanish bosqichiga olib chiqadi. Bugungi o‘zbek adabiyotida, ayniqsa ayollar she‘riyatida fojiaiviylik individual va ijtimoiy og‘riq, tarixiy uzilish, milliy identitet, psixologik sukunat va tan olinmaslik orqali ifodalanmoqda. Zebo Mirzo, Nodira Ofoq va Halima Ahmad she‘rlarida fojiaiviylik faqat iztirob emas, balki estetik muvozanat, timsollar, faryodsiz sukunat va ichki qarama-qarshilik sifatida ko‘rinadi.

Muhokama

Tragediya janri va fojiaiviylik tushunchasi asrlar davomida doimiy estetik va falsafiy yangilanish jarayonida bo‘lgan. Antik davrdan boshlab tragediya inson hayotidagi eng muhim ontologik va axloqiy muammolarni sahnalashtirish orqali san‘atning falsafiy shakliga aylangan. Aristotel ta’kidlagan “katarsis” tushunchasi fojiaiviylikni nafaqat voqea orqali, balki tomoshabinning ruhiy poklanishi orqali ham anglatgan. Hegel, Nitsshe faylasuflar esa fojiaiviylikni ongli qarama-qarshilik, ekzistensial iztirob, va tarixiy-dialektik to‘qnashuvlar doirasida talqin qilgan. Tadqiqot davomida tragediya janrining har bir adabiy davrda o‘ziga xos falsafiy-estetik asosga ega bo‘lganligi aniqlandi. Antik davrdagi kosmik-estetik fojiaiviylikdan tortib, modernizmning ontologik va psixologik fojialarigacha

³ Qarang: Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг / Таҳр. Р. Ҳодизода. — Т.: Ўқитувчи, 1990. — 420 б.

⁴ Фитрат А. Танланган асарлар. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2018. — 352 б. — Б. 141.

bo'lgan evolyutsiya, inson hayotining zamon va tafakkur bilan bog'liq murakkab jarayon ekanini ko'rsatdi. Tragediya faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki insoniy ong, tanlov, mas'uliyat va vijdonning dramatik sinovidir.

O'zbek adabiyotida fojiaiviylik qadim turkiy yozma yodgorliklardan boshlab zamonaviy ayollar she'riyatigacha bo'lgan bosqichlarda estetik-falsafiy uyg'unlikda namoyon bo'lgan. "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq" asarlaridan boshlab inson va taqdir o'rtasidagi ziddiyat markaziy g'oya sifatida talqin etilgan. Mumtoz lirika, ayniqsa Alisher Navoiy ijodida, fojiaiviylik tasavvufiy iztirob, ilohiy sevgi va ruhiy poklanish bilan uyg'unlashgan. XIX–XX asrlardagi jadidlar — Fitrat, Furqat, Muqimiy, Ogahiy — fojiaiviylikni ijtimoiy ong va milliy uyg'unish zaminida talqin qilganlar. Ularning asarlarida shaxsiy iztirob xalq fojiasi bilan birlashgan — bu holat Lukasning "yaxshilik bilan yaxshilik to'qnashuvi"⁵ tamoyiliga mos keladi. Zamonaviy o'zbek ayollar she'riyatida fojiaiviylik motivlari mutlaqo yangi badiiy va psixologik qatlamda qayta talqin etilmoqda. Zebo Mirzo, Nodira Ofoq, Halima Ahmad she'rlarida fojiaiviylik — individual iztirob, tarixiy xotira, tan olinmaslik, begonalik, ayollik haqiqatlari, ijtimoiy yakkalanish va psixologik parokandalik vositasida poetik tarzda ifodalanmoqda. Bu she'rlarda fojiaiviylik faqat iztirob emas, balki estetik ong, ichki qarshilik, iroda va sukunat orqali shakllangan tragik dominant sifatida e'tirof etiladi. Muhokama natijasida aniqlanishicha, fojiaiviylik tushunchasi adabiy tafakkurning eng muhim va dolzarb kategoriyalaridan biri bo'lib, har qanday davrda inson va uning haqiqatini anglash, uni badiiy-estetik shaklda ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Aynan shu jihati bilan fojiaiviylik san'atning tarixiy-madaniy uzviyligida o'z o'rnini saqlab qolmoqda.

Tahlillar va natijalar

O'rganilgan adabiy-estetik manbalar, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va nazariy konsepsiyalar asosida quyidagi ilmiy natijalar aniqlandi: Fojiaiviylik universal tushuncha bo'lsa-da, har bir davrda u turlicha falsafiy va estetik asosda

⁵ Lucas F.L. Tragedy: Serious Drama in Relation to Aristotle's Poetics. — London: Hogarth Press, 1957. — 416 p.

shakllangan. Antik davrda tragediya — insonning oliy kuchlar oldidagi o'jizligi va ruhiy poklanish zarurati (katarsis) asosida, O'rta asrlarda — axloqiy najot va ilohiy sinovlar orqali, Uyg'onish davrida esa — individuallik va erkinlik bilan bog'liq tragik kurash orqali ifoda etilgan. Tragik qahramonning tipologik evolyutsiyasi aniqlandi: antik davrda yarim-xudo yoki qirol maqomidagi qahramonlar, modernizmga kelib esa oddiy, ruhan bo'linib ketgan, ichki ziddiyat bilan yashovchi inson obraziga aylangan. Masalan, Kafka va Bekket qahramonlari jamiyat emas, balki mavjudlikning o'z mohiyati bilan to'qnashadi. Fojiaviylik tiplari davrlarga qarab quyidagicha shakllandi: antik davrda — kosmik-estetik, o'rta asrlarda — diniy-axloqiy, uyg'onishda — individuallik asosidagi ruhiy fojiaviylik, realizmda — ijtimoiy, naturalizmda — biologik-deterministik, modernizmda esa — ontologik va psixologik fojiaviylik shaklida namoyon bo'ldi. O'zbek adabiyotida fojiaviylik shakllanishi qadim turkiy yodgorliklar, tasavvufiy lirikalar, jadid adabiyoti va zamonaviy ayollar she'riyati orqali izchil va chuqur badiiy-estetik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Qadimgi davrlarda fojiaviylik taqdir va ilohiy zarurat bilan bog'liq bo'lsa, zamonaviy lirika uni ichki ruhiy ziddiyat, tan olinmaslik va ijtimoiy yakkalanish orqali ifoda etadi. Fojiaviylik lirikada dramatik energiyaga ega bo'lgan poetik kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Shoir obrazidagi tragiklik — bu iztirob, ichki qarshilik, sukut, ba'zan umidsizlik, ba'zan esa ijtimoiy haqiqatga qarshi iroda shaklidagi ichki monologlar orqali ifodalanadi. Zamonaviy o'zbek ayollar she'riyatida fojiaviylik yangi estetik bosqichga ko'tarilgan. Bu fojiaviylik endilikda nafaqat shaxsiy iztirob, balki genderlik, tarixiy xotira, milliy haqiqat va psixologik buzilishlar bilan bog'langan holda ifodalanadi. Lirik ayol obrazi — jamiyatda o'z o'rnini izlayotgan, yakkalanishga duch kelgan, ammo bunga ichki iroda bilan qarshi turgan zamonaviy tragik shaxs timsoliga aylangan.

Xulosa

Tragediya janri va fojiaviylik tushunchasi adabiy-estetik tafakkurda insoniyatning mavjudlik, axloqiy tanlov va ijtimoiy ziddiyatlar bilan bog'liq eng

chuqur ruhiy holatlarini ifodalovchi badiiy shakl sifatida shakllangan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tragediya har bir davrda o'zining falsafiy mohiyati, jamiyatga munosabati va poetik ifoda vositalari bilan yangicha tus olgan. Antik davrda tragediya — bu ilohiy kuchlar oldida insonning ojizligi va katarsis orqali ruhiy tozalanish vositasi bo'lgan bo'lsa, modernizmga kelib fojiaiviylik insonning mavjudlik mohiyati bilan to'qnashuvi, begonalik, ichki parokandalik va ma'nosizlik hissi sifatida namoyon bo'lgan. Har bir davr fojiaiviylikni o'z tarixiy-estetik kontekstida talqin qilgan: diniy axloqiy kontekstdan – ekzistensial tushkunlikka qadar. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri — o'zbek adabiyotida fojiaiviylikning o'ziga xos shakllanishini aniqlashdan iborat bo'ldi. Qadimgi turkiy manbalardan boshlab, mumtoz lirika, jadid adabiyoti va zamonaviy ayollar she'riyati doirasida fojiaiviylik shakli va mazmuni tobora murakkablashib borgan. Ayniqsa, bugungi o'zbek she'riyatida fojiaiviylik nafaqat estetik va shaxsiy iztirob, balki tarixiy xotira, ijtimoiy yakkalanish, psixologik qarama-qarshilik va genderlik bilan bog'liq muammolarni yoritishda asosiy badiiy vositaga aylangan. Shu boisdan fojiaiviylik kategoriyasini adabiy jarayonlarda, ayniqsa lirik asarlar tahlilida yondashuv sifatida qo'llash, hozirgi davr adabiyotining ruhiy va falsafiy qatlamlarini anglashda muhim metodologik vositadir. Tragediya va fojiaiviylik — bu insoniyat tafakkurining estetik shakllangan o'z-o'zini anglash usuli bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Поэтика / Пер. с древнегреческого Ф. Зелинского. – М.: Искусство, 2016. – 127 с.
2. Платон. Государство / Пер. с древнегреческого А. Н. Егоров. – М.: Наука, 2007. – 420 с.
3. Лосев А.Ф. История античной эстетики: Софисты. Сократ. Платон. – М.: Искусство, 1979. – 816 с.

4. Hegel G.W.F. Aesthetics: Lectures on Fine Art. Vol. 1. – Oxford: Clarendon Press, 1975. – 566 p.
5. Nietzsche F. The Birth of Tragedy. – New York: Penguin Books, 1993. – 152 p.
6. Lucas F.L. Tragedy: Serious Drama in Relation to Aristotle's Poetics. – London: Hogarth Press, 1957. – 416 p.
7. Kafka F. The Trial. – London: Penguin Books, 2000. – 255 p.
8. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – 336 б.
9. Сувон Мели. Сўзу сўз: “Адабиёт фалсафаси”га чизгилар. – Тошкент: Шарқ, 2020. – 190 б.
10. Навоий А. Ҳазоин ул-маонӣ. – Т.: Фан, 1983. – 4-ж.
11. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг / Таҳрир. Р. Ҳодизода. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 420 б.
12. Фитрат А. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2018. – 352 б.